




Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-avgust)

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish hajmi,
mlrd. so'm, o'zgarish sur'ati, % da**



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida viloyat sanoat korxonalari tomonidan 5992,0 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 106,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 95,299 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 6,3 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida - 7,1 % ga, suv bilan ta’minalash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda 5,1 % ga o‘sish kuzatildi. Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash sanoatida esa 13,3 % ga kamayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi – ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.**




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

2019-yil yanvar-avgust



2020-yil yanvar-avgust



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Ishlab chiqaradigan sanoat



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,029 % ini tashkil etdi. 2020-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5710,3 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,299 % ini tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushgaga ega avtovoz vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 45,3 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 20,2 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 17,2 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 45,3 %.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 20,2 %.



Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi -17,2%.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati




Joriy yilning yanvar-avgust oylarida elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 238,5 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,980 %)ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 86,7 % ni tashkil qildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 41,5 mldr.soni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,692 % ni) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni suv yig'ish, qayta ishslash va taqsimlash (64,5 %), chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizasiya qilish (34,7%) korxonalarini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, %



● Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish



Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati) da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-avgust	2019-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln. kVts:	201,3	372,5	- 171,2
Issiqlik energiyasi – ming Gkal:	59,7	72,1	- 12,4
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobilarsiz) – dona:	35322,0	32047,0	3275
Maxsus yengil avtomobillar – dona:	5327,0	5040,0	287
Aroq – ming litr:	230,2	635,4	- 405,4
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari (konyak spirtidan tashqari) – ming litr:	8,9	14,2	- 5,3
Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr:	456,0	753,5	- 297,5
Yumshoq bug'doy va spelta	61741,8	52075,6	9666,2

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-avgust	2019-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
uni – tonna:			
Tozalangan o'simlik yog'i – tonna:	7576,2	10566,2	- 2990
Xo'jalik sovuni – tonna:	2955,0	4670,0	- 1715
Paxta tolasi – tonna:	38963,4	30646,4	8317
Paxta chigit – tonna:	63107,3	48330,4	14776,9


Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 171,2 mln.kVtsga, issiqlik energiyasi 12,4 ming gkalga, aroq 405,4 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 297,5 ming litrga, tozalangan o'simlik yog'i 2990,0 tonnaga, xo'jalik sovuni 1715 tonnaga kamaygan.

Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz), yumshoq bug'doy va spelta uni, paxta tolasi, paxta chigit ishlab chiqarish sezilarli darajada oshgan.




Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

2020-yil yanvar-avgust



2019-yil yanvar-avgust



■ Yuqori texnologiyali
■ O'rta-yuqori texnologiyali

■ Quyi texnologiyali
■ O'rta-quyi texnologiyali

2019-yil yanvar-avgust oylarida o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 5,8 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yil yanvar-avgust oylarida bu ko'rsatkich 6,7 foizga va quyi texnologiyali ishlab chiqarish 37,5 foizdan 40,1 foizga oshgan bo'lsa, o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 51,5 foizdan 48,5 foizga, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 0,02 foizdan, 0,01 foizga kamayishi kuzatildi.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 0,3 mlrd.so‘mlik (2019-yil yanvar-avgust oylarida 0,9 mlrd.so‘m), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 2903,6 mlrd.so‘mlik (2645,9 mlrd.so‘m), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 404,0 mlrd.so‘mlik (297,0 mlrd.so‘m), quyi texnologiyali tarmoqda 2402,4 mlrd. so‘mlik (1924,3 mlrd.so‘m) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.


**Xorazm viloyati hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Shahar va tumanlar nomi	2020-yil yanvar-avgust mlrd. so‘m	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	5992,0	106,2
Urganch shahri	1125,7	89,5
Xiva shahri	89,1	102,5
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bog‘ot tumani	247,9	108,5
Gurlan tumani	225,1	97,9
Qo‘siko‘pir tumani	107,0	106,9
Urganch tumani	270,5	108,1
Hazorasp tumani	176,3	108,8
Tuproqqa‘ tumani*	2821,1	105,0
Xonqa tumani	269,0	82,4
Xiva tumani	127,6	120,2
Shovot tumani	185,7	106,4
Yangiariq tumani	177,1	135,4
Yangibozor tumani	169,9	142,6

Yuqorida jadval tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Tuproqqa‘, Yangiariq, Xiva, Hazorasp, Bog‘ot va Urganch tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatlari yuqori darajada rivojlangan.


***Tuproqqa'l'a tumani – 2020 yil aprel oyida Hazorasp tumani hududidan alohida ajralib chiqqan tuman hisoblanadi.**




Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan choratadbirlar natijasida, 2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, Yangibozor tumanida 142,6 %, Yangiariq tumanida 135,4 %, Xiva tumanida 120,2 %, Hazorasp tumanida 108,8 %, Bog'ot tumanida 108,5 %, Urganch tumanida 108,1 % va Qo'shko'pir tumanida 106,9 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.

SANOAT ISHLAB CHIQARISH FIZIK HAJM INDEKSI
2019-YIL YANVAR-AVGUST OYLARIGA NISBATAN, % DA





Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulushga ega Tuproqql'a tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 47,1 %), Urganch shahri (18,8 %), Urganch (4,5 %), Xonqa (4,5 %) hamda Bog‘ot (4,1 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Xiva tumani (2,1 %), Qo‘shko‘pir tumani (1,8 %) va Xiva shahri (1,5 %)ga to‘g‘ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish. (mlrd.so‘m)

Iqtisodiy faoliyat turlari:

**2020-yil
yanvar-avgust**

**2019-yil
yanvar-avgust**

**Iqtisodiy faoliyatning alohida
turlari bo‘yicha sanoat
mahsulotlari ishlab chiqarish
hajmi**

5992,0

5135,8

**Tog‘-kon sanoati va ochiq
konlarni ishlash**

1,8

1,6

ulardan:

**Tog‘-kon sanoatiga bog‘liq boshqa
faoliyat**

1,8

1,6

Iqtisodiy faoliyat turlari:	2020-yil yanvar-avgust	2019-yil yanvar-avgust
Qayta ishslash faoliyati	5710,3	4868,1
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	837,5	769,4
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	195,6	158,5
To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1212,5	848,9
Kiyim ishlab chiqarish	35,1	14,3
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	2,6	3,9
Yog‘och va po‘kak buyumlar, poxol va to‘qish uchun materialllar ishlab chiqarish	5,5	6,1
Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	26,7	13,5
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,8	1,1
Neftni qayta ishslash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,6	0,4
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	31,9	27,5
Asosiy farmasevtika	0,1	0,6
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	33,9	31,2
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	211,4	134,3


Iqtisodiy faoliyat turlari:	2020-yil yanvar-avgust	2019-yil yanvar-avgust
Metallurgiya sanoati	26,3	21,5
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	122,9	97,0
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,2	0,3
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	17,0	18,9
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	138,6	323,3
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	2715,8	2275,8
Mebel ishlab chiqarish	31,2	27,6
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	54,8	81,0
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	8,9	12,7
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	238,5	233,0
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	41,5	33,1




Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 3839,7 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,6 foizni tashkil etdi.

2020 yil yanvar-avgust



2019 yil yanvar-avgust



Oziq-ovqat mahsulotlari

Nooziq-ovqat mahsulotlari

Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 871,3 mlrd.so'mni, alkogol ichimliklar 9,5 mlrd.so'mni va 2958,9 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 88,0 foiz, 45,3 foiz va 106,9 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 64,1 foizni (2019 yil yanvar-avgust oylarida 73,6 foiz) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda engil sanoat mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish 203,3 mlrd.so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 2331,8 mlrd.so'mni tashkil qildi va 423,8 mlrd.so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



**Xorazm viloyati bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati
(2020-yilning yanvar-avgust oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	3839,7	100	101,6
Urganch shahri	517,1	13,5	95,0
Xiva shahri	68,8	1,8	106,2
<i>shundan tumanlar;</i>			
Bog‘ot tumani	135,5	3,5	104,8
Gurlan tumani	83,4	2,2	68,7
Qo‘shko‘pir tumani	40,7	1,1	73,5
Urganch tumani	182,3	4,7	104,5
Hazorasp tumani	50,5	1,3	70,1
Tuproqqa'l'a tumani	2380,1	62,0	110,3
Xonqa tumani	143,1	3,7	88,0
Xiva tumani	53,5	1,4	62,4
Shovot tumani	85,3	2,2	91,5
Yangiariq tumani	56,4	1,5	88,4
Yangibozor tumani	42,9	1,1	77,1

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri kelib, 62,0 % ni, shuningdek, Urganch shahri 13,5% ni, Urganch tumani 4,7 % ni, Xonqa tumani 3,7 % ni hamda Bog'ot tumani 3,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (101,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Tuproqqa'l'a tumanida (110,3 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati
(2020-yilning yanvar-avgust oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	871,3	100	88,0
Urganch shahri	316,0	36,3	92,3
Xiva shahri	30,0	3,4	91,2
<i>shundan tumanlar;</i>			
Bog‘ot tumani	62,0	7,1	114,4
Gurlan tumani	38,4	4,4	58,8
Qo‘shko‘pir tumani	22,4	2,6	65,6
Urganch tumani	117,0	13,4	108,5
Hazorasp tumani	29,3	3,4	67,4
Tuproqqa'l'a tumani	11,8	1,3	59,7
Xonqa tumani	98,6	11,3	89,4
Xiva tumani	30,6	3,5	70,3
Shovot tumani	58,2	6,7	91,0
Yangiariq tumani	29,8	3,4	85,3
Yangibozor tumani	27,4	3,1	72,4

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulush Urganch shahriga to‘g‘ri kelib 36,3 % ni, shuningdek, Urganch tumani 13,4 % ni, Xonqa tumani 11,3 % ni, Bog‘ot tumani 7,1 % ni, Shovot tumani 6,7 % ni, Gurlan tumani 4,4 % ni hamda Xiva tumani 3,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkichni Bog‘ot tumani (114,4 %), Urganch tumani (108,5 %) tashkil qildi.

**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati
(2020-yilning yanvar- avgust oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	2958,9	100	106,9
Urganch shahri	191,6	6,5	105,7
Xiva shahri	38,8	1,3	121,7
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	73,6	2,5	97,9
Gurlan tumani	45,0	1,5	80,2
Qo‘siko‘pir tumani	18,3	0,6	86,3
Urganch tumani	65,3	2,2	98,0
Hazorasp tumani	21,2	0,7	74,1
Tuproqqal'a tumani	2368,4	80,0	110,8
Xonqa tumani	44,6	1,5	85,2
Xiva tumani	23,0	0,8	54,3
Shovot tumani	27,1	0,9	92,7
Yangiariq tumani	26,6	0,9	92,3
Yangibozor tumani	15,5	0,5	87,1

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri kelib, 80,0 %, shuningdek, Urganch shahri 6,5 % ni, Bog'ot tumani 2,5 % ni, Urganch tumani 2,2 % ni, Xonqa tumani 1,5 % ni va Gurlan tumani 1,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (106,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkichni Gurlan tumani (121,7 %) va Tuproqqa'l'a tumani (110,8 %) tashkil qildi.




Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (2019-yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, % da)

Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish 2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan Tuproqqa'l'a tumanida 110,3 % ga, Xiva shahrida 106,2 % ga va Bog'ot tumanida 104,8 % ga sezilarli darajada o'sgan.

Qolgan barcha tumanlarda o'sish sur'ati 100 % dan kamayganini ko'rish mumkin.

Masalan, Urganch shahrida 95,0 %, Yangiariq tumanida 88,4 %, Yangibozor tumanida 77,1 %, Qo'shko'pir tumanida 73,5 %, Hazorasp tumanida 70,1 % va 62,4 % Xiva tumaniga to'g'ri keladi.





**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish
(2020-yil yanvar- avgust oylarida, ming so‘m)**


Shahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da	Iste’mol mahsulotlari	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	3 201,7	104,5	2051,6	99,9
Urganch shahri	7 806,3	88,2	3585,9	93,6
Xiva shahri	965,7	100,9	745,3	104,5
<i>shundan tumanlar,</i>				
Bog‘ot tumani	1 509,1	106,6	824,8	103,0
Gurlan tumani	1 519,8	96,4	562,9	67,7
Qo‘siko‘pir tumani	622,5	105,1	236,8	72,3
Urganch tumani	1 363,6	106,1	918,9	102,6
Hazorasp tumani	911,4	106,9	261,0	68,8
Tuproqqal’a tumani	51 199,6	103,5	43196,1	108,7
Xonqa tumani	1 445,3	81,1	769,2	86,7
Xiva tumani	878,5	118,2	368,8	61,4
Shovot tumani	1 094,2	104,6	502,7	90,0
Yangiariq tumani	1 529,7	133,3	487,4	87,1
Yangibozor tumani	1 948,8	140,5	491,8	76,0

Yuqoridagi tahliliy jadvalga asosan joriy yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 3201,7 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atining 104,5 foizga oshishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar-avgust oylarida Tuproqqal'a tumanida 44242,2 ming so'mdan 2020-yil yanvar-avgust oylarida 51199,6 ming so'mga, Yangibozorda tumani 1015,2 ming so'mdan 1948,8 ming so'mga, Yangiariq tumanida 936,6 ming so'mdan 1529,7 ming so'mga, Gurlan tumanida 1458,7 ming so'mdan 1519,8 ming so'mga, Bog'ot tumanida 1014,7 ming so'mdan 1509,1 ming so'mga, Shovot tumanida 869,0 ming so'mdan 1094,2 ming so'mga oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqal'a tumanida (51199,6 ming so'm), Urganch shahrida (7806,3 ming so'm) o'rtacha o'sish sur'atining viloyat darjasini ko'rsatkichidan (3201,7 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi viloyat bo'yicha 2051,6 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,9 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar-avgust oylarida Tuproqqal'a tumanida 39731,0 ming so'mdan 2020 yil yanvar-avgust oylarida 43196,1 ming so'mga, Urganch tumani 895,9 ming so'mdan 918,9 ming so'mga, Bog'ot tumani 801,0 ming so'mdan 824,8 ming so'mga, Xiva shahri 712,9 ming so'mdan 745,3 ming so'mga bu ko'rsatkich o'sgani kuzatildi.



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi
(2020-yil yanvar-avgust oylarida, % da)**



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumanida (100 %), Urganch tumanida (80,3 %), Bog'ot tumanida (78,0 %), Gurlan tumanida (58,0 %), Qo'shko'pir tumanida (44,8 %) kuzatildi.

Viloyatda yanvar-avgust oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1622,2 mldr.so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 27,1 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Tuproqqa'l'a tumani (2,8 %), Yangibozor tumani (25,4 %), Shovot tumani (30,6), Yangiariq tumani (32,4 %), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 705,8 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 11,8 % ni tashkil etdi.

Xorazm viloyati statistika
boshqarmasi
Sanoat statistikasi bo‘limi.
Aloqa telefoni: (62) 224-64-99